

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

BOYSUN tumani 3son poitexnikumi

Maxsus fan o'qituvchisi: Abdullayeva Dilafr'o Islom qizi

Nodirovnormatov6622gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslari, mazmuni va amaliy yo'nalishlari yoritildi. Axloqiy tarbiyaning bolaning shaxs sifatida kamol topishidagi o'rni, tarbiya jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi, shuningdek, pedagogik usul va vositalarning samaradorligi tahlil qilinmoqda.

Axloqiy tarbiya-shaxsni xar tomonlama rivojlantirishning muxim tarkibiy qismidir.

U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy xis-tug'i asifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayonidir.

Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jixatdan kamolga yetadi.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, pedagogik yondashuv, shaxs, tarbiya, shaxs kamolati, maktabgacha yoshda, ijtimoiy moslashuv, ko'nikmalar, bolar axloqi, bola, axloq, tarbiya, metod.

Kirish: Maktabgacha yosh davri inson shaxsning shakllantirishida muhim bosqich hisoblanadi. Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jixatan kamolga etadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o'zlarning boshqalar bilan bo'ldigan munosabatlarni ongli tushuna boshlaydilar, tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabatlari kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning aloxida bir shakllidir.

Asosiy qism: Axloqiy sinfi xususiyatiga ega, chunki axloq xis-tuyg'u, tushuncha va prinsiplar ma'lum ijtimoiy formatsiyaga xos bo'lib, ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan u xam o'zgaradi. Bizning jamiyatimizdagi axloq, eng yaxshi umuminsoniy xulq noramlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Axloqiy tarbiyaning bolaning shaxs sifatida kamol topishidagi o'rni, tarbiya jarayonida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi, shuningdek, pedagogik usul va vositalarning samaradorligi tahlil qilinadi.

Axloqiy tarbiya-bu bolalarda axloqiy ong, axloqiy hi-tuyg'ular va ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asoslari muvaffaqiyat

vaziyatlarini yaratish va bolalarni ularga javob berishga o'rgatish zarurligiga asoslanadi. Chaqaloq maqtov va tanqidni to'g'ri qabul qilishni o'rganishi juda muhimdir. Bu yoshda, taqlid qila oladigan kattalarga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. Ko'pincha bolalik davrida ongsiz butlar yaratiladi, ular kattalar davrida odamning boshqarib bo'lmaydigan harakatlari va fikrlariga ta'sir qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va axloqiy tarbiyasi asosan boshqa odamlar bilan muloqotga emas, balki mantiqiy muamolarni hal qilishga ham asoslangan. Ularning yordami bilan bola o'zini angalashni va uning harakatlariga tashqi tomondan qarashni, shuningdek, boshqa odamlarning harakatlarini talqin qilishni o'rganadi.

Axloq so'zi lotincha "myeros", ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi.

Axloq-kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob-shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalarini tizimida namoyon bo'ladi.

Xulosa: xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma'naviy sifatlarini bo'ladi. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolada axloqiy tushunchalar - yaxshilik va yomonlik, halollik va insofsizlik, hurmat va mas'uliyat kabi sifatlar asoslari vujudga keladi. Axloqiy tarbiya bolani jamiyat qoidalariga mos ravishda yashashga, o'z xatti-harakatlarini boshqara olishga va atrofdagilar bilan ijobiy munosabat o'rnatishga o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiya jarayoni o'yinlat, ertakalar, suhbatlar, mehnat faoliyati va ijtimoiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyani tizimli va maqsadli tashkil etish kelajakda ijtimoiy faol, ma'naviy yetuk va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalingan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qaror va farmonlar. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi-Toshkent, 2018.
3. Abdurahmonov A. Maktabgacha pedagogika-Toshkent: O'qutuvchu, 2019.
4. Qodirova F.R. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi -Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Boltaboyev M. Maktabgacha ta'limda tarbiya metodlari- Toshkent, 2021.